

OILA A'ZOLARIGA BAG'ISHLANGAN MAQOLLARINING SEMANTIK TAHLILI

Gulnora Xolmurotova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Ingliz tili fani o'qituvchisi

Email: g.xolmurotova@gmail.com

Annotatsiya: Oila bilan bog'liq barcha muommolar, bilimlar, baholar va qadriyatlar til birliklarida o'z aksini topadi. Demak, ushbu konsept tilning leksik, frazeologik, paremiologik va matn sathlariga asoslangan holda, bunday bilimlarini ro'yobga chiqarishi, shuningdek, xalq donoligini aks ettiradigan folklor diskurslarida, xalq qo'shiqlarida, maqol va matallarda voqelanishi mumkin

Kalit so'zlar: maqol, folklor, xalq, tarixiy so'zlar, qadriyat, konsept, diniy bilimlar

Kirish

“Oila” konsepti ham lisoniy, ham ma’daniy bilimlar, tasavvurlar va baholarni o’zida mujassam etgan olam manzarasi tasvirining mental birligidir. Ushbu konsept mazmunini voqealantirish til yordamida amalga oshiriladi. Oila bilan bog’liq barcha muommolar, bilimlar, baholar va qadriyatlar til birliklarida o’z aksini topadi. Demak, ushbu konsept tilning leksik, frazeologik, paremiologik va matn sathlariga asoslangan holda, bunday bilimlarini ro’yobga chiqarishi, shuningdek, xalq donoligini aks ettiradigan folklor diskurslarida, xalq qo’shiqlarida, maqol va matallarda voqelanishi mumkin.

Dissertatsiyamizning 3.1 rejasida biz “oila” asoschilari bo’lmish ota va ona konseptlariga to’xtalgan edik, bilaks, ta’kidlaganimizdek “oila” keng tushuncha va uning a’zolari faqat ota va onadan iborat emas. “Oila” konseptini xususiyatlari va tarkibini 3.1 rejamizda tanishish imkoniga egasiz. Quyida “oila” konseptining tarkibiga kiruvchi oila a’zolarining va qarindoshlarining semantik tahlilari va ularning maqollarda ishlatilishi yuzasidan izlanish olib boramiz.

“Kin”/“qarindosh”, “qarindoshlik” haqidagi maqollar mazmuni milliy o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida kin (qarindosh) leksemali paremiyalarning tarkibida “kin”, “kinsfolk”, “kinsman”, “relation”, “relatives” kabi komponentlar mavjud. Ushbu turkumdagi o’zbek maqollarida “qarindosh”, “pusht”, “jon”, “og’ayni”, “o’z”, “xesh”, “jigar”, “tirnoq”, “et”, “tomir”, “urug’”, “urug’-aymoq”, “tuxum”, “tuqqan”, “tug’ishgan”, “otadosh”, “otasi boshqa”, “kindikdosh”, “tomirdosh”, “suyak” kabi leksemalar qo’llanilgan.

Angliyada qarindoshlikka befarqlik bilan qarashadi. Ularda yaqinlari va qarindoshlarining yordami haqida, hatto, o’ylanmaydi, bunda har bir shaxs

qarindoshlarga nisbatan burch, majburiyat yoki javobgarlik hissini sezmaydi. Ular faqat Rodjestvo (milod bayrami), Kreshenie (cho'qintirish) bayrami, to'y va janozalarda uchrashadilar.

Qadimdan o'zbeklarda qarindosh-urug' mentalitetning ajralmas bir qismi sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yaxshi kunlarda ham, yomon kunlarda ham qarindoshning o'rni beqiyos bo'lgan. Og'aynilar bir-biridan o'zlarining ko'maklarini ayamagan. Jamoa bo'lib yashash o'zbeklar uchun urf-odat sanalgan.

Qator ingliz maqollarida qarindoshlarga ega bo'lish muhimligi haqida so'z boradi: *Even the Son of Heaven has his poor relations (Hatto osmon o'g'lining ham qandaydir qarindoshlari bor)*. O'zbek maqollarida ta'kidlanishicha, asosiy qarindoshlar – qon qarindoshlar: Qon qarindosh jon qarindosh. Qarindoshlar – yaqin odamlar, ular insonning o'limiga qadar uning suyanchi, tayanchi, ko'makchisidir: *Qarindoshning tovushi qorong'ida belgili; Yot – yeguncha, qarindosh – o'lguncha; Terak tomirlariga, odam tug'ishganlariga tayanar*.

Har ikki xalqda do'stlik munosabatlari qarindoshlikka nisbatan ko'proq qadrlanishi bois qarindoshdan haqiqiy do'st yaxshi ekanligi haqida maqollar mavjud:ing. *One loyal friend is worth ten thousand relatives (Bitta sodiq do'st mingta qarindoshdan ustun)*; o'zb. Tuqqandan tutungan afzal. Keyingi vaqtlarda o'zbeklarda hamkasblar yaqin kishilarga, qarindoshlarga aylandi: *Qarindoshing – qarindosh emas, kasbdoshing – qarindosh*. O'zbek xalqi talqinicha, boshqa xalqlarning tillarini egallash orqali ham qarindoshlik rishtalari o'rnatiladi: *Qardosh tilin bilmoq – qarindoshlik belgisi*.

Bir qator ingliz maqollarida qarindoshlarning geografik jihatdan qayerda joylashganligi ham e'tiborga olingan, chunki qarindosh qancha uzoqda yashasa, ma'naviy munosabatlar shunchalik yaqin bo'lishi tasdiqlangan: *Love your relations but live not near them (Qarindoshlaringni sev, ammo ularga yaqin yashama)*. O'zbek millatida bunga zidroq dunyoqarash, talqin mavjud, ya'ni ko'rishib turmaydigan qarindoshlar uzoqlashib ketishadi: *Borsang – qarindosh, bormasang – begona*.

Ingliz paremiyalarida boy kishining qarindoshlari ko'p bo'lishi, lekin ular g'arazli bo'lishi haqida fikr yuritadi: *Everyone is a kin to the rich man (Boy kishida qarindoshlar ko'p bo'ladi)*. O'zbek tilida bir paremiya sostavida badavlat va kambag'al qarindoshlar haqidagi fikrlar ham o'rin olgan: *Bor qarindosh – qarindosh, yo'q qarindosh – ziyondosh*.

Angliyada qarindoshlar bilan munosabatlarni saqlash uchun birgalikda ish yuritmaslik kerak degan qarash bor: *Do not business with a kinsman (Qarindoshlar bilan umumiy ish yuritma)*. Paremiya umumiy ish (biznes)ni qarindoshlar bilan emas, balki begonalar bilan olib borish to'g'ri, deb ogohlantiradi: *Eat and drink with your relatives; do business with strangers (O'z qarindoshlarining bilan ye, ich; ishni begonalar bilan olib bor)*. O'zbek xalqida ta'kidlanishicha, har doim ham

qarindoshning bor narsasiga ishonib bo'lmaydi: *Tomir tagi – dov* (*dov – yo'g'on, baquvvat*), *qarindosh tagi – yov*.

Ingliz badiiy asarlarida **mother “ona”** va **father “ota”** leksemalari tez - tez uchrab turadi: *I was with father and mother, everybody we met kept talking about the coming war with Germany* [Aldington, p. 124]. Ingliz tilida “*o'tmishi xira ayolga uylanmoq, ishqiy aloqalarni nikoh bilan qonunlashtirmoq*” ma'nosi *make an honest woman of somebody* iborasi orqali taqdim etiladi:

...my right honorable father nourished same thoughts of making an honest woman of Marie de Martigny... [W. Scott, “St. Ronan's Well”, p. 44]. Tengsiz nikoh left-hand marriage iborasi bilan nomlanadi, chunki urf - odat bo'yicha, tengsiz nikohni rasmiylashtirishda, kuyov kelinga o'ng qo'li o'rniga chap qo'lini beradi. Ushbu ibora milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lib, inglizlarning odatini aks ettiradi:

They contracted left-hand marriages after the princely fashion of those days [W. Thackeray, “The Four Georges”, p. 182].

Er xotinning uyiga o'rinishib olganda, unga nisbatan *hang one's hat (in somebody's house)* – uzoq vaqt kimningdir uyida ko'chib kelib joylashmoq, uylanmoq va xotidikida yashamoq iborasi ishlatiladi:

Eight hundred a year, and as nice a house as any gentleman could wish to hang up his hat in... [A. Trollope, “The Warden”, p. 171].

Shunday bo'ladiki, er va xotin mushuk va it kabi abadiy janjallashib yashaydilar va bu *cat-and-dog life* – mushuk va it kabi, abadiy janjallar frazeologizmida qayd etilgan:

If he is unhappy with her... why doesn't he leave her? She can be happy without him. It is so silly – this cat-and-dog existence [Th. Dreiser, “The Titan”, p.213]. Ko'rinib turibdiki, muallif life “*hayot*” tarkibiy qismni existence “*mavjudlik*” so'ziga almashtirgan. Frazeologizmlar ko'pincha mualliflar tomonidan o'zgartiriladi. O'zbek badiiy diskursida qon-qarindoshlikni aks ettiruvchi leksemalar yoki idiomalardan foydalaniladi:

Buvimdan judo bo'lganimizda to'qqiz yoshlarda edim. Otam ham ittifoqo Istambulda edi [R.N. Guntekin, “Choliqushi”, b. 18]. *Bu Elgeldining qizi deyman – miltiqning o'qi, pushtigulning tuki, mullajon* [Askad Muxtor, “Qoraqalpoq qissasi”, b. 539]. *Bu markiza, - deb g'oldiradi Korovèv, - meros deb otasini, ikki akasini va ikki singlisini zaharlab o'ldirgan!* [M. Bulgakov, “Usta va Margarita”, b. 388]. Ushbu gapda birdaniga uchta qarindoshlikni anglatuvchi ota, aka va singil leksemalari qo'llangan.

Keyingi kontekstda er-xotin tomonidan qarindoshlikni ko'rsatadigan va inglizcha analogi bo'lmagan ovsin leksemasi qo'llangan: *Bir oyog'im to'rda-yu, bir oyog'im go'rda, ajal degan ro'dapo eshikning tirkishidan mo'ralab turibdi-yu, qolgan besh*

kunimga shukur qilmay, yana orzu-havas qilaymi, aylanay ovsin [Askad Muxtar, “Сестры”, б. 18].

O‘zbek tilining rasmiy uslubida xotin tushunchasi rafiqqa – turmush o‘rtog‘i so‘zi bilan ifodalanadi: Bular “*Fransuz hayoti*”ning noshiri, deputat, sarmoyador, davlatmand savdogar, janubiy yahudiylardan janob Valter bilan uning rafiqasi – Bazil-Rivalo degan bankirning qizi edi [Gi de Mopassan, “Azizim”, s. 33]. O‘zbekcha **jufti halol** – (ijob.) qonuniy xotin, rafiqqa, umr yo‘ldoshi frazeologizmi milliy xususiyatga ega:

Birinchi bo‘lib kelgan mehmonning o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmay sandiroqlab yurganidan, bu asnoda uning jufti haloli – malikai dilozori, ... [M. Bulgakov, “Usta va Margarita”, s. 381].

Ma‘lumki, o‘zbekcha **qiz** (yoki **qizcha**) so‘zi gender xususiyatini namoyon etib, voyaga yetgan qizni hamda qiz farzandni anglatgan holda, yaqin qarindoshlik aloqasini ko‘rsatishi mumkin. Quyidagi gapda “**qiz farzand**” ma‘nosi voqelanyapti, chunki gapda onasi so‘zi berilgan: *Onasiga qaraganda ancha siporoq bo‘lgan qizcha boshini omonatgina silkib, tashakkur aytar, ...* [Gi de Mopassan, “Azizim”, s. 35].

Ta‘kidlash joizki, xotin leksemasi badiiy asarlarda “**xotin**” ma‘nosida ham, “**ayol**” ma‘nosida ham qo‘llaniladi: *Nima deganda ham bular xotin zotidan edi, ular sevgi, ishqibozlik uchun yaratilgan xotinlar edi* [Gi de Mopassan, “Azizim”, s. 9]. Quyidagi gapda erlar so‘zi erlarni emas, erkaklarni anglatadi: *Xotinlar juft-juft bo‘lib kezishardi, ... narra erlar orasida o‘zlarini suvdagi baliqdek sezayotganlari shundoq bilinib turardi* [Gi de Mopassan, “Azizim”, s. 24]. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, badiiy matnlar muayyan til (bizning holatda ingliz va o‘zbek tillari) sohiblaridagi oilaviy yo‘l-yo‘riqlar va turli oilaviy munosabatlar bilan tanishish uchun boy va qiziqarli materialdir.

Ba‘zi ingliz paremiologik birliklarida odam qarindoshlarni qo‘llab quvvatlash zarurligi ta‘kidlanadi: *A man should keep from the blind and give to his kin (Inson ko‘zi ojizga sadaqa bermasligi kerak, qarindoshga yordam berishi lozim)*. “Nasl” ma‘nosidagi “pusht” leksemali o‘zbek maqoli ham ushbu mazmunni o‘zida mujassam etgan: *Bor yetti pushtini qo‘llar paremiyasi “imkoniyati kattalar butun nasliga yordam qiladi” ma‘nosini beradi.*

Quyidagi ingliz naqlida xeshlarni har doim ham ta‘minlab bo‘lmasligi uqtiriladi: *A man cannot bear all his kin on his-back (Inson hamma qarindoshlarini o‘z yelkasida ko‘tarib yura olmaydi)*. O‘zbek xalqi maqollarida ta‘kidlanishicha, qarindoshlarni ajratishga harakat qilmaslik kerak, unday kishilarni jazo kutadi: *To‘ng (to‘ng – muzlab, quyuglashib, qotib qolgan (to‘nglab qolgan yog‘, muz) ayirgan moy yer, qarindosh ayirgan loy yer.* Bu yorug‘ dunyoni g‘animat bilish kerak, chunki Bir uy to‘la jonsan, bir-biringga mehmonsan. Bu naqlida “**jon**” so‘zi “*qarindoshlar*” ma‘nosiga ega.

Keep your own fish-guts for your own sea-maws (O‘zlarinigizning baliq ichaklaringizni xususiy dengizlaringizda saqlang) ingliz paremiyasida “agar sizda ortiqcha narsalar bo‘lsa, ularni qarindoshlaringiz, do‘stlaringiz yoki hamqishloqlaringizga beringlar, ya’ni yaqinlaringizni seving” mazmunini beradi. O‘zbeklarda qarindosh qarindoshga umid bog‘laydi: *Tuqqan tuqqandan umid tutar*.

O‘zbek paremiyalari insonning og‘ir, musibatli kunlarida qarindoshlar kor kelishi haqida xabar beradi: *Yog‘ yeganda yot yaxshi, qon yutganda – qarindosh; Yeb ichganda yot yaxshi, qayg‘u kunda – qarindosh*. Bu maqollar bir paremiyaning variantlaridir.

O‘zbek xalqi maqollarida “**qarindoshlik**” ma’nosini beruvchi xesh, xeshlik, jigar leksemalari ham qo‘llanadi: Xeshlik – xushlik. Birinchi galda og‘aynilar: *Avval – xesh, keyin – darvesh; Jigar – jigar, digar – digar*. Ko‘p ingliz maqollarida esa qarindoshlar hasad qilishlari mumkinligi haqida fikr yuritiladi: *Kinsfolk knows well to envy too* (Qarindoshlar hasad qilishni ham bilishadi). Yaqin kishilar bir-birini ko‘raolmasligi aks etgan paremiyalar ham ma’lum: *The hatred of relatives is the most violent* (Qarindoshlar nafrati nihoyatda shafqatsiz bo‘ladi). O‘zbek maqollarida ta’kidlanishicha, hayotda yomon, mehirsiz, qadrsiz qarindoshlar ham bor. Qarindosh va yot kishilar bir maqol tarkibida uchraydi: *Yordami yo‘q qarindoshdan yetti yot begona yaxshi; Qadr bilmas qarindoshdan, qadr bilgan yot yaxshi. Yomon qarindoshdan yordam kutma*, deb ta’kidlanadi naqla: *Yomon qarindoshga yalinguncha, qora qozoningga yalin*.

Blood is thicker than water (Qon suvdan quyugroq) ingliz maqoli “oilaviy aloqalar, munosabatlar qandaydir boshqa turdagi munosabatlardan ko‘ra kuchliroq” ma’nosida qo‘llaniladi. *Blood will tell* (Qonidan ma’lum); *What’s in the bone will come out in the flesh* (Suyagida bo‘lsa, jismiga chiqadi) kabi paremiologik birliklar “oilaga xos xususiyatlar yoki irsiyatni yashirib bo‘lmaydi, ya’ni genetika avlodlar xulq-atvorida oxirgi rolni o‘ynaydi” mazmunini ifodalaydi. “**Urug‘**” so‘zining asosiy ma’nolaridan bir – “qarindosh”. Avloding, qarindoshlaring ichida bor narsa, barcha kichiklarga ham taalluqli bo‘ladi: *Urug‘ingda bo‘lsa, urpog‘ingga (urpoq (urvoq) – ko‘chma ma’noda eng kichik bo‘lak, zarra degani) tatir*.

O‘zbek tilidagi “**tuxum**” leksik birligi “**nasl, avlod, zurriyot**” ko‘chma ma’nosi bilan bir paremiya tarkibida kuzatildi: *Tuxumi birning bari bir. Maqolning mazmuni – “qarindoshlar bir-biriga o‘xshash bo‘ladi.” Tirnoqni etdan ajratib bo‘lmas* (var. *Tirnoqni etdan ayirib bo‘lmaydi*) o‘zbek maqolida “*ota-onani bolalardan, bolalarni ota-onadan, tug‘ishganlar va yaqin qarindosh-urug‘larni, chin do‘stu qarindoshlarni biri-biridan ayirib bo‘lmazligi*” uqtiriladi. O‘zbek tilida *Etni tirnoqdan ajratib bo‘lmas, sevgan xotinni – erdan naqli ham mavjud*. “**Tug‘ishgan**” leksemasi qarindoshni bildiradi: *Oltmish qulon ot bo‘lmas, tug‘ishganing yot bo‘lmas*.

Mavhum tushunchali *One touch of nature makes the whole world kin* (Tabiatning birgina tutashgani butun dunyoni qarindosh qiladi) ingliz paremiyasi “odamlardagi mustahkam hislar yoki ularning kuchsizligi ko‘p holatlarda insonlarning bir-biriga yaqinlashuviga olib keladi” mazmunini anglatadi. Britaniyaliklar boylik va serobgarchilikni majoziy ma’nodan qarindosh hisoblashadi: *A bag full of flour and a purse full of money are the best relations in the world* (Un to‘la xalta, pul to‘la hamyon – dunyoda eng yaxshi qarindoshlar). Shunga o‘xshash nuqtai nazar o‘zbeklarda ham mavjud. Bir guruh maqollarda ko‘pchilik insonlar uchun uyidagi eng zarur narsalari o‘ziga yaqin, ya’ni majoziy ma’nodan qarindosh hisoblanadi: *Qarindoshim qora qozonim; Qayerga borsang ham, qora qozoning og‘ayning*.

“**Yaqinlar (yaqin odamlar)**” ma’nosida folks leksemali ingliz paremiyalari ham bor: *A house is a fine house when good folks are within* (Ichida yaxshi odamlar yashaydigan uy yaxshi uydur). “Urug’” leksemasi quyidagi o‘zbek maqolida qayd etilgan: *Tulki quyrug‘ini maqtar, axmoq – urug‘ini*.

“**Tomir**” leksik birligi o‘zbek shevalariga xos so‘z bo‘lib, “**qarindosh, urug’**” ma’nolari bilan maqollarda uchraydi. Qarindosh haqida gapirganda o‘ylab gapirish kerak, deb ta’kidlanadi bir maqolda: Tomiringni maqtama, yomon chiqsa qaytasan?

Turkum maqollar tarkibida “**tuqqan**” leksemasi paremiya komponenti sifatida ishtirok etgan. Yaramaslar uchun qarindoshlar yomon: *Yomon odam tuqqanini yomonlar* (var. *Yomon tuqqanini yomonlar*). O‘zbek tilida qarindosh ma’nosini anglatuvchi “**suyak**” leksemali naqlar ham uchraydi: *Sulton suyagini xo‘rlamas; Sulton suyagini xo‘rlamas, olg‘ir – otini; Zulm o‘tini eqma, suyagingni chaqma*.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Maqollarda qarindoshlikni anglatuvchi “otadosh”, “otasi boshqa”, “kindikdosh”, “tomirdosh” leksik birliklar ham uchraydi. *Otadoshim, otga min, otasi boshqa, otdan tush* maqolidagi “otadosh” so‘zi “ota bir, ona boshqa” ma’nosini beradi. Paremiyaning ma’nosi – “otadosh aka-ukalar o‘gaylardan yaqin turadi”. “Ma’nolar maxzani” kitobida “otadosh” “otalash” variantida berilgan. *Otalashning sovg‘asi oyida qaytadi* paremiyasi ham keltirilgan. *Otasi boshqa bilan quyvon ovlama; Otasi boshqa el bo‘lmas* naqlari ham tahlil etilgan. “*Kindikdoshim, beri kel, Tomirdoshim nari tur!*” (*kindikdosh – bir onadan tug‘ilgan bolalar; Tomirdosh – begona aka-uka, opa-singil tutinlar*);

<...> “*Kindikdoshga kek tutma, Etakdoshdan et kutma*” (maqollar biz tomondan kursivga olindi. – O.U) (*etakdosh – birovning “etagini tutgan”, ya’ni birovga tayanib, suyanib, uning erdamiga muhtoj bo‘lib qolgan odam.*). Qisqasi, mazkur maqol bilan: “Kindikdoshingdan bo‘lar-bo‘lmas narsa uchun kek saqlab, gina qilib yurma. U senga biror yomonlik qilgan, “undan o‘tgan” bo‘lsa ham, sen bundan xafa bo‘lma, undan butunlay yuz o‘girma. Negaki, kindikdoshing ming qilsa ham tug‘ishganing, yaqiningdir. Ammo etakdoshingga bunchalik qat’iy ishonch ham bildirma, butunlay suyanib ham olma. Negaki, etakdosh ming qilsa ham begona, yot odam, hushiga kelsa

yordam qiladi, hushiga kelmasa, so‘zingni yerda qoldirib, sazoingni o‘ldirib, obro‘yingni bir paqir qilib ketishi ham – hech gap emas”, degan mazmuni anglatadi.

3.3-§. Qarindoshlik va begonalik mavzusiga oid bo‘lgan o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari

Ingliz tilining maqollar xazinasida qarindosh-urug‘chilik mavzusidagi maqollar salmoqli o‘rinni egallaydi. Ushbu guruhga kiruvchi maqollarni turli jihatlariga ko‘ra kichik sinflarga ham ajratish mumkin. Bunday sinflardan biri qarindosh-urug‘chilik darajasiga ko‘ra ajratilgan sinf. Unga ko‘ra quyidagilarni ajratish mumkin:

Ota-ona va farzandlar (o‘g‘il-qiz, aka-uka):

Ingliz tilidagi ota-ona, farzandlari mavzusidagi maqollarning soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Buning boisi, maqollarning farzand tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqligidadir. Chunki tarbiya deganda ilk bor insonning xayoliga ota - ona va farzandlar tushuniladi: *Like mother – like daughter (Onasini ko‘r qizini ol, choki (tarog‘i)ni ko‘r - bo‘zini ol), A son who is loved by his father becomes a father who loves his son (Bolani sevgan otaning bolasi ham bolasini sevadigan bo‘ladi), father gives his son a garden, son does not give grapes (ota o‘g‘liga bog‘ qoldiribdi, o‘g‘il otasida bir shingil uzum bermabdi)* kabi.

Bunday maqollarda ota-onaning farzandiga beradigan tarbiyasi qanchalik muhim ekanligi, maqollarda farzandning ota-ona izidan borishi, “qushning o‘z uyasida ko‘rganini qilishiga ishora qilinadi: *Like father – like son (Otasidan ko‘rgan dasturxon solar, onadan ko‘rgan – ko‘rpacha solar), walnuts and pears you plant for your heirs (yong‘oq va nokni merosxo‘ring uchun ekasan)* Ota-ona va farzandlar munosabati haqida yuzlab inglizcha maqollar aytilgan: *it is a wise child that knows its own father (otasini hurmat qilganni el ham hurmat qiladi, otasini tanigan donishmanddir), clergymen’s sons always turn out badly (ruhoniylarni o‘g‘illari doim yomon chiqishadi, mullani aytganini qil qilganini qilma), children are certain cares (bolalar asosiy g‘amxo‘rlik va e‘tibordadir), praise the child, and you make love to the mother (Bolani rag‘batlantir va uni onasiga mehribon qil), it is a wise child that knows its own father (otani tanigan bola donishmanddir).*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirzaev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek halq maqollari, Toshkent: Sharq nashriyoti, 2013. – B. 512.
2. Mollanazar, H. Principles and methodology of translation. - Tehran: SAMT, 2001.- 215p
3. Nessel, T. (2009). Ronald W. Langacker, cognitive grammar: A basic introduction. Journal of Linguistics, 45(2), 477-480.
4. Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003.

5. Proverb // The New Encyclopaedia Britannica. Vol. 9. Chicago et al.: Encyclopaedia Britannica, 1994. – P. 749. (<https://www.britannica.com/art/proverb>).
6. Safarov Sh..Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax , 2006. – B.13
7. The Oxford dictionary of current English (second edition.), edited by Della Thompson. – Oxford: Oxford university press, 1993 – p.541.
8. Uralova O.P. Инглиз ва ўзбек тилларида kin/қариндошлар тўғрисидаги мақоллар семантикасининг чоғиштирма таҳлили // Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-116-121.